

Respublika fan olimpiadasining 1-bosqichi g'oliblarini taqdirlash

“Irrigatsiya va melioratsiya” kafedrasini mudiri va professor o'qituvchilari tomonidan “Irrigatsiya va melioratsiya” va “Qishloq xo'jaligi gidrotexnika melioratsiyasi” fanlaridan respublika fan olimpiadasining 1-bosqichida 1-2-3 o'rinni egallagan talabalar faxriy yorliklar bilan taqdirlandilar. Kafedra mudiri prof. Begmatov I.A. so'zga chiqib talabalarning bugungi erishgan yutuqlari bilan tabrikladilar.



Talabalarga kelajakda yetuk mutaxassis kadr bo'lib yetishishlarini va har bir ishda omad yor bo'lishini tiladilar. Professor Isayev S.X so'zga chiqib talabalarni yuksak yutuqlari bilan tabrikladilar. Talabalarning olgan bilimlarini mustahkamlab borishlarini, har bir sohada ilg'or harakatchan bo'lishlarini va bundanda yuqori natijalarni zabt etishlarini tilab koldilar. Faxrli o'rinni egallagan iqtidorli talabalarimizga Respublika fan olimpiadasining 2-bosqichida faxrli 1-o'rinni egallashlarini tilab qolamiz.



“Irrigatsiya va melioratsiya” kafedrasini dotsenti v.b. D.Abduraimova axboroti

TIQXMMI matbuot xizmati